

MEROS SHARTNOMASINING HUQUQIY MOHIYATI VA SHAKLI

Abdiyeva Shaxrizoda

Toshkent davlat yuridik universiteti, Magistratura va sirtqi ta’lim fakulteti, Xalqaro tijorat huquqi yo’nalishi, magistratura talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15479552>

Annotatsiya. Mazkur tezisda meros shartnomasining amaliyotda qo’llanilishi, uning fuqarolik muomalasidagi o’rni, ijtimoiy va huquqiy ahamiyati keng yoritilgan. Shartnomaning real hayotdagi qo’llanish holatlari, xususan, qarov evaziga mol-mulk berish, oilaviy nizolarning oldini olish, biznesda uzviylikni saqlash hamda ko‘chmas mulkni tartibli o’tkazish vositasi sifatida ishlatilishi tahlil qilingan. Sud amaliyoti asosida meros shartnomasining ishonchliligi va huquqiy kuchi baholangan. Maqola fuqarolarning huquqiy ongini oshirish va meros huquqini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: meros shartnomasi, mulk huquqi, fuqarolik huquqi, merosxo‘r, sud amaliyoti, notarius, shartnoma tartibi.

Kirish

Fuqarolik huquqi tizimi kishilar o’rtasidagi mol-mulk munosabatlarini tartibga solishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ayniqsa, shaxsning o‘limidan keyin uning mol-mulki qanday taqsimlanishi va bu jarayonni qanday huquqiy vositalar orqali amalga oshirish mumkinligi — dolzarb masalalardan biridir. Meros huquqi ana shu ehtiyojlarni tartibga soluvchi institut bo‘lib, uning amaliyotda qo’llanilishi turli shakllarda yuzaga chiqadi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga kiritilgan meros shartnomasi instituti ana shunday zamonaviy huquqiy vositalardan biridir. Mazkur shartnoma orqali meros qoldiruvchi o‘z mol-mulkini kelgusida meros oluvchiga o’tkazishga rozilik bildiradi, bu esa meros huquqining yangi bosqichga o’tganini anglatadi. Ushbu maqolada meros shartnomasining huquqiy mohiyati, mazmuni va shakli haqida keng tushuncha beriladi.

Meros shartnomasining huquqiy mohiyati

Meros shartnomasi — bu ikki tomonlama huquqiy bitim bo‘lib, unga ko‘ra, meros qoldiruvchi o‘z mol-mulkini vafotidan so‘ng meros oluvchiga o‘tishini ta’minalash uchun ma’lum shartlarda kelishuvga erishadi. Bu shartnoma faqat shaxslar tirikligida tuziladi va ular o‘zaro rozilik asosida shartnoma shartlarini belgilaydilar.

Fuqarolik kodeksining 1139-moddasida bu shartnoma alohida tartibda belgilab qo‘yilgan bo‘lib, unga ko‘ra, mulk egasi mol-mulkini boshqa shaxsga vafotidan so‘ng o’tkazish

majburiyatini oladi, meros oluvchi esa, agar shartnomada ko'rsatilgan bo'lsa, ma'lum majburiyatlarni bajarishga rozilik bildiradi. Bunday majburiyatlar, odatda, meros qoldiruvchiga qarash, unga moddiy yordam ko'rsatish, turar joy bilan ta'minlash kabi ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatlarni qamrab oladi.

Bu jihatdan meros shartnomasi vasiyatnomadan farq qiladi. Vasiyatnomma — bu bir tomonlama irodaviy harakat bo'lib, faqat vasiyat qoldiruvchining istagiga asoslanadi. Meros shartnomasi esa — ikki tomonning kelishuvini talab qiladigan huquqiy bitim bo'lib, u kuchga kirgandan so'ng taraflar roziligidan bekor qilinmaydi.

Meros shartnomasi shartlarining yuridik kuchga ega bo'lishi, kelgusida nizolarning oldini olish, taraflar o'rtasida huquqiy ishonchni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Meros shartnomasining shakli

Har qanday huquqiy hujjat kabi, meros shartnomasining ham qonuniy kuchga ega bo'lishi uchun muayyan shaklga riosa qilinishi talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga muvofiq, meros shartnomasi faqat notarial tartibda yozma shaklda tuziladi. Ya'ni, bu hujjat notarius tomonidan tasdiqlanishi kerak. Agar ushbu talab buzilsa, shartnoma haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Shuningdek, meros shartnomasida quyidagi asosiy elementlar ko'rsatilishi zarur:

- meros qoldiruvchining va meros oluvchining shaxsiy ma'lumotlari;
- mulkning tavsifi (masalan: uy, yer maydoni, avtomobil va boshqalar);
- shartnomaning kuchga kirish sharti (odatda, meros qoldiruvchining vafoti);
- taraflarning huquq va majburiyatları;
- shartnoma muddati, bekor qilish yoki o'zgartirish tartibi.

Meros shartnomasining yana bir muhim jihatı — uning taraflar roziligi bilan har doim bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkinligidir, biroq bu o'zgarishlar ham notarial tasdiqlovdan o'tishi lozim.

Amaliyotda qo'llanishi

Meros shartnomasi hozirgi kunda amaliyotda tobora keng qo'llanilmoqda. Bu institutning qo'llanilishiga fuqarolar o'rtasida ishonchli huquqiy munosabatlar o'rnatish, keksalik chog'ida ta'minlanganlikni kafolatlash, mulkning kelajakdagi taqdirini oldindan hal etish istagi sabab bo'lmoqda. Meros shartnomalari amaliyotda ko'pincha yolg'iz yashovchi, nogironligi bor yoki qarovga muhtoj keksalar tomonidan tuziladi. Ular o'zlariga doimiy g'amxo'rlik ko'rsatadigan yoki yordam beradigan shaxslar foydasiga, mulklarini vafotidan keyin o'tkazishni nazarda tutuvchi shartnomani tuzadilar. Bunday holatlarda shartnoma nafaqat

mulk masalasini hal qiladi, balki keksalar uchun ijtimoiy kafolat, ruhiy xotirjamlik manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Masalan, bir ayol yolg‘iz yashab, unga qarindosh bo‘lmagan qo‘schnisi yordam ko‘rsatgan bo‘lsa, ayol ushbu qo‘schnisining xizmatlarini qadrlab, unga o‘z uyi meros qilib qolishi sharti bilan meros shartnomasi tuzadi. Bu orqali ayol qarovchiga huquqiy kafolat beradi, u esa o‘z navbatida ayolga doimiy yordam ko‘rsatadi. Meros shartnomasining yana bir amaliy jihatni — kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan mulk bo‘yicha da’volar va nizolarning oldini olishdir. Ko‘plab oilalarda meros masalasi nizoga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, bir nechta farzandlar yoki qarindoshlar mavjud bo‘lsa, ularning har biri mulkka nisbatan da’vo qilishi mumkin. Shunday holatlarda ota-onada yoki mol-mulk egasi avvaldan meros shartnomasi tuzib, aynan kimga qanday mol-mulk o‘tishini aniqlab qo‘yadi. Bu esa boshqa merosxo‘rlarning noqonuniy da’volarini inkor etadi. Misol uchun, ota o‘zining yagona uyini uni boqayotgan farzandiga meros shartnomasi orqali o‘tkazadi. Bu shartnomada boshqa farzandlarning da’vo qilish imkoniyatini cheklaydi va mulk ustidan tortishuvlarga barham beradi.

So‘nggi yillarda meros shartnomasining tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida ham qo‘llanilishi kuzatilmoqda. Ba’zi holatlarda yirik xususiy korxonalar, oilaviy bizneslar yoki fermer xo‘jaliklari rahbarlari o‘z faoliyatlarini davom ettirishni xohlagan shaxs bilan meros shartnomasi tuzadilar. Bu orqali biznesning uzluksizligi ta’minlanadi. Meros shartnomasida korxonaning, aksiyalarning yoki ishlab chiqarish vositalarining vafotdan keyin aynan kimga o‘tishi belgilab qo‘yiladi. Bu yondashuv — kompaniya barqarorligini saqlash, kelajakda nizolarni oldini olish va merosxo‘rlarni aniq belgilash vositasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Amaliyotda meros shartnomasi, ayniqsa, ko‘chmas mulk (uy-joy, yer maydoni, dala hovli) bo‘yicha ko‘p qo‘llaniladi. Bu holatlarda taraflar shartnomani notarius orqali rasmiylashtirib, mulkning keljakdagi egasi oldindan belgilanadi. Bu huquqiy tartib jarayonni ancha soddalashtiradi va davlat organlarida rasmiylashtirishda ortiqcha hujjatlar talab qilinmaydi. Shuningdek, bunday yondashuv yordamida mulkni vasiyatdan farqli ravishda himoya qilish mumkin, chunki vasiyat har doim da’volar ostida qolishi mumkin, meros shartnomasi esa ikki tomonlama kelishuv bo‘lgani uchun sudda ko‘proq ishonchli hujjat sifatida qabul qilinadi. Amaliyotda sudlar meros shartnomasini huquqiy kuchga ega hujjat sifatida tan oladi. Biroq, ayrim hollarda meros shartnomasiga nisbatan da’volar keltiriladi, masalan, taraflardan biri o‘z majburiyatini bajarmagan bo‘lsa, shartnomada haqiqiy emas deb topilishi

mumkin. Shu bois, shartnoma shartlari aniq, tushunarli va notarius tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi lozim.

Xulosa

Meros shartnomasi fuqarolik huquqida yangi va istiqbolli institut hisoblanadi. U mol-mulkning tartibli ravishda o‘tishini, taraflar o‘rtasida oldindan kelishilgan shartlarda amalgamoshirilishini ta’minlaydi. Uning huquqiy mohiyati shundaki, u ikki tomonning roziligiga asoslangan holda tuziladi va meros qoldiruvchining vafotidan keyin mol-mulkning meros oluvchiga o‘tishini kafolatlaydi. Meros shartnomasining notarial tasdiqlangan yozma shaklda tuzilishi talab etilishi esa huquqiy xavfsizlik va adolatni ta’minlaydi. Shu bilan birga, ushbu institut amaliyotda fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, meros ustidan bo‘ladigan nizolarni kamaytirish va oilaviy barqarorlikni saqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. (1996-yil 29-avgust), 1139-moddasi.
2. Jo‘rayev M., Toshqulov A. Fuqarolik huquqi. 1-kitob. – Toshkent: “Yangi asr avlod”, 2021.
3. Karimov B., Ortikova G. Fuqarolik huquqi amaliyoti: savol va javoblar. – Toshkent: “Adolat”, 2019.
4. Gulyamov S. Meros huquqi asoslari. – Toshkent: “Sharq”, 2020.